


Navoiy VILOYATIDA kichik tadbirkorlik

2018 yil yanvar-sentyabrida 1421 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45,1 % ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (292 ta), qurilishda tarmog'ida (312 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (277 ta), savdo sohasida (237 ta), qurilish (188 ta), yashash va ovqatlanishda (156 ta) va boshqa tarmoqlarda tashkil etgan.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2345,4 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 14,4 %) yoki 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 109,6 % ni tashkil qildi;




– 1036,0 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 14,4 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 142,7 % ni tashkil qildi;



– 941,5 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 68,1 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 99,9 % ni tashkil qildi;



-1716,8 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (jami xizmatlar hajmining 62,6 %), 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 104,0 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 92,3 % yoki 3486,7 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 2,7 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;




– 35,2 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 16,5 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 7,4 mln. AQSh dollariga yoki 17,4 % ga kam;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,0 % ga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 42,9 %) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 2,7 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 84,4 %) ko`payishi ta`minlandi;

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tuman (703,7 mlrd.so'm) Navoiy shahri (435,3 mlrd.so'm),Qiziltepa (387,2 mlrd.so'm) va Xatirchi tuman (277,4 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (815,4 mlrd.so'm), Karmana tuman (605,5 mlrd.so'm) va Zarafshon (433,2 mlrd.so'm) shahri hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Xatirshi tumani (317,8 mlrd.so'm), Navoiy shahri (286,1 mlrd.so'm) va Qiziltepa(265,3 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-sentyabr kichik tadbirkorlikning
hududlar bo`yicha ulushi
(% da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
Navoiy viloyati bo'yicha	14,4	68,1	62,6
Navoiy shahri	3,3	84,7	25,5
Zarafshon shahri	76,2	9,1	65,7
tumanlar:			
Karmana	47,8	90,0	72,7
Konimex	100,0	97,9	97,6
Qiziltepa	84,5	90,2	96,6
Navbaxor	77,7	98,9	98,4
Nurato	98,8	97,8	98,1
Tomdi	100,0	86,7	98,2
Uchquduq	100,0	97,8	95,7
Xatirchi	84,3	96,3	98,8

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Konimex, Tomdi va Uchquduq tumanlari (100,0%), Nurato (98,8 %) va Qiziltepo (84,5 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Xatirchi (98,8 %), Navbaxor (98,4 %) va Tomdi (98,2 %) tumanlari tashkil etadi.


Qurilishda Navbaxor (98,9), Konimex (97,9), Ushquduq(97,8), va Xatirshi (96,3 %), tumanlari tashkil etadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil III-chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 35 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, respondentlarning 57,1 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 34,3 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda – 50,0 % va 50,0 %, savdo sohasida – 66,7 % va 16,7 %, xizmatlar sohasida – 80,0 % va 10,0 %, qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligida – 42,9 % va 57,1 %, sanoatda – 37,5 % va 50,0 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 12,5 %, savdoda – 16,7 % va xizmatlarda – 10,0 %, ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil III–chorak uchun



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 75,0 % sanoat korxonalari, 100,0 % – qurilish va savdo, 71,4 % – qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi, va 90,0 % – xizmatlar tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Viloyat statistika boshqarmasi
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi
bo'limi**